

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA AQLIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI HAMDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Hamroyeva Nafisa Latipovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar 22-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanish bosqichlari, bilish jarayonlarining shakllanishi hamda ushbu jarayonda qo'llaniladigan psixologik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, bolaning intellektual rivojlanishida oila, maktab va psixologik muhitning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Kichik maktab yoshi, aqliy rivojlanish, tafakkur, xotira, diqqat, bilish jarayonlari, psixologik yondashuv, ta'lim, motivatsiya, shaxs rivojlanishi.

KIRISH

Kichik maktab yoshi bolaning aqliy va psixologik rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davr odatda 6–11 yosh oralig'ini qamrab olib, bolaning bilish faoliyati, tafakkuri va ijtimoiy munosabatlari faol rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Aynan shu davrda o'quv faoliyati yetakchi faoliyat turiga aylanadi.

Aqliy rivojlanish bolaning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq jarayonlarining shakllanishi bilan bog'liqdir. Dastlabki bosqichlarda bolalarda ko'proq obrazli tafakkur ustun bo'lsa, keyinchalik mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyati rivojlana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda diqqatning ixtiyorsiz shakli ustun bo'ladi. Shu sababli ular qiziqarli va ko'rgazmali materiallarga tezroq e'tibor qaratadilar. Ta'lim jarayonida rangli vositalar, o'yin elementlari va interfaol usullardan foydalanish diqqatni rivojlantirishga yordam beradi.

Xotira jarayonlari ham ushbu davrda faol shakllanadi. O'quvchilar dastlab ma'lumotlarni mexanik tarzda eslab qolishga moyil bo'lsalar, vaqt o'tishi bilan mantiqiy

xotira rivojlanadi. Takrorlash, taqqoslash va bog‘lanishlar asosida o‘rganish bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Psixologik yondashuvlar orasida individual yondashuv muhim o‘rin tutadi. Har bir bolaning qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish darajasi turlicha bo‘lganligi sababli ta‘lim jarayonida ularning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Jean Piaget nazariyasiga ko‘ra, kichik maktab yoshidagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichida bo‘lib, ular aniq predmet va hodisalar asosida fikrlashga moyil bo‘ladilar. Shu bois o‘qitishda amaliy va ko‘rgazmali metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Shuningdek, Lev Vygotsky bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va kattalar yordamini muhim omil sifatida ko‘rsatgan. Unga ko‘ra, bolaning bilish faoliyati kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlik jarayonida rivojlanadi. Maktab amaliyotchi psixologi bolalarning aqliy rivojlanish darajasini o‘rganib, diqqat, tafakkur va xotirani rivojlantirishga qaratilgan trening hamda mashg‘ulotlarni tashkil etadi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash bolaning ta‘limga moslashuvini yengillashtiradi. Ma‘lumki, har qanday insonning o‘shish, rivojlanish va shakllanish davrlari ta‘limtarbiya faoliyatisiz amalgam oshmaydi. Aqliy taraqqiyot va ta‘lim-tarbiya, bir-biriga chambarchas bog‘liq faoliyatdir. Ta‘lim jarayonida o‘quvchi faollik ko‘rsatmasa amalga oshirilayotgan tadbirlar ko‘zlangan natijani bermaydi. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish ham muhimdir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o‘qish hisoblanadi. O‘quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi. Maktabga kelgash bola o‘z atrofidaoglar bilan psixologik jahatdan yangi munosabat tizimiga o‘tadi. U o‘zining hayotini tubdan o‘zgartirishni, unga yangi mjburiyatlar, o‘quv faoliyati talablariga bo‘y so‘nish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi. Oila a‘zolarining bola o‘quv faoliyati yutiqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqei o‘zgarganligini to‘la his etishga o‘ziga nisbatan munosabatning o‘zgarishiga asos bo‘ladi. Ta‘lim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali ularning bilimlar egallsh ko‘lami

kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobilayati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular o`rtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Bola maktabga qadam qo`yishi bilanoq unga bo`lgan munosabat va talablar orqali o`ziga xos bo`lgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyatlar va shart – sharoitlar yaratish oila, maktab ta`lim tizimiga ulkan ma`suliyat hissini yuklaydi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilar ishonuvchan, tashqi taassurotlarga beriluvchan bo`ladilar. Buyuk alomallarimiz ta`kidlaganidek, kishining fe`l atvori hammadan ko`ra ko`proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo`lgan sifatlar mustahkam o`rnashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkichi tabiatida tabiiy hissiyotlarni fazilatlarni tarkib toptirish yukask axloq normalarini shakllantirish uchun butun ma`suliyat boshlang`ich sinf o`qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida o`qituvchining har bir gapi har bir hatti harakati ta`sir ko`rsatish uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki o`quvchilar o`qituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga quloq soladilar. Pedagogik nazokatida jiddiy tasvirlanadilar. Talablarga hamisha amal qiladilar. U bergan topshriqlarni bekamu kust bajarishga intiladilar. To`g`ri mulohaza yurtishga o`rganish noma`qul qiliqlardan tiyish va musiqa tinglashga odatlantirish ularga nimalar bilan shug`ulanish kerakligini, burch hissini tushuntirish ular bilan o`qilgan kitoblarni, ko`rilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tug`iladi.

Kichik maktab yoshdagi o`quvchilarning axloqiy sifatlarni rivojlantirishdagi koz`langan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish shart. Ma`lumki, oquvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo`lib, bir o`quvchiga muvaffaqiyat bilan qo`llangan tarbiyaviy ta`sir vositasi boshqa birga qo`llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlar o`quvchilarga yakkamayakka yondoshib amalga oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish o`qituvchi o`quvchilarning xususiyatlarini qanchalik o`rganganligiga bog`liqdir. Ta`lim jarayonida har bir o`quvchining psixik

dunyosiga oqilona yo'l topa olish muvaffaqiyatlarning garovidir. Ta'lim - tarbiya jarayonida bolalarni hayoti va faoliyatini shunday uyushtirish lozimki, bunda bola shaxsining kichik yoshida o'quvchilarda tarkib topgan xususiyatlar toboro boyib va mustahkamlanib boradi. Maktab ta'limining dastlabki yillaridagi bilishga bo'lgan qiziqishlar, tevarak atrofdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish ko'proq intellektual qiziquvchanlikni sezilarli ravishda rivojlantiradi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olinadigan hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo'ladi. O'qish faoliyatida kichik yoshdagi o'quvchilarning aqliy jarayonlari bilish uchun bo'lgan qiziqishlar bilan faollashib qiziqish o'quvchilarning aqliy faoliyati asosida paydo bo'ladi va uning shaxsiy individual sifatida o'quvchilarning ana shu aqliy faoliyatini yanada rivojlantiradi. O'quvchilarning qiziqishlari mazmuni, barqarorligi jihatdan hilma –xildir. Keng mazmunli va barqaror qiziqishlar o'quvchilarning yoshligidan paydo bo'la boshlaydi.

Kichik maktab yoshi bolalik davrining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, ushbu davr bolaning psixik rivojlanishi, shaxs sifatida shakllanishi hamda ijtimoiy muhitga moslashuvida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yosh davri bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Jumladan:

- maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari;
- maktabga moslashish jarayoni;
- kichik maktab yoshida yetakchi faoliyatning shakllanishi;
- kichik maktab yoshidagi asosiy psixologik yangiliklarning rivojlanishi.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishi ko'p jihatdan uning maktabga qay darajada tayyorlanganligiga bog'liq bo'ladi. Maktabga tayyorgarlik bolaning nafaqat bilim darajasini, balki psixologik, ijtimoiy va jismoniy rivojlanish holatini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Avvalo, shaxsiy tayyorgarlik muhim o'rin tutadi. Bu bolaning motivatsion sohasi rivojlanganligi, bilishga bo'lgan qiziqishi, o'quv faoliyatiga intilishi bilan belgilanadi. Bola o'zini jamiyatning muhim a'zosi sifatida his qilishni, yangi ijtimoiy maqom —

“o‘quvchi” bo‘lishni istaydi. Shu bilan birga, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olish, jamoada o‘z o‘rnini topish ham shaxsiy tayyorgarlikning asosiy ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi.

Ikkinchi muhim jihat — intellektual tayyorgarlikdir. Bunda bolaning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari, bilim zaxirasi, idrok va tafakkurining rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bola narsa va hodisalarni farqlay olishi, umumlashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi, sodda mantiqiy xulosalar chiqarishi kerak. Nutqning rivojlanganligi ham intellektual tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Chunki boy lug‘at zaxirasi va fikrni ravon ifodalash qobiliyati o‘quv faoliyatining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, bolaning tabiat, jamiyat, insonlar mehnati haqidagi tasavvurlari keyingi ta’lim uchun mustahkam asos vazifasini bajaradi.

Harakat tayyorgarligi ham bolaning maktabga moslashuvida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, mayda motorikaning rivojlanganligi yozuv malakalarini egallashda katta ahamiyatga ega. Qo‘l, oyoq va tana harakatlarini boshqara olish bolaning jismoniy faoliyatini tartibga solishga yordam beradi. O‘quv faoliyatiga tayyorgarlik esa bolaning kattalarni diqqat bilan tinglay olishi, ko‘rsatmalarni aniq bajarishi, topshiriqlarni mustaqil bajarishga intilishi hamda chalg‘ituvchi omillarga qaramasdan vazifani oxirigacha yetkazishi bilan belgilanadi. Maktabga ilk bor qadam qo‘ygan bola hali o‘z xatti-harakatlarini to‘liq nazorat qila olmaydi. Shu sababli o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan talablar va qoidalar uning xulq-atvorini boshqarishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asta-sekin yangi tartib-qoidalarga moslashib, jamoa talablariga amal qilishni o‘rganadilar.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, birinchi sinfga qadam qo‘ygan bolalarning hammasi ham maktab muhitiga tez va oson moslasha olmaydi. Ayrim bolalarda intizom, o‘quv faoliyati yoki tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatishda muammolar kuzatiladi. Bunga oiladagi salbiy muhit, sog‘liq bilan bog‘liq muammolar, psixologik tayyorgarlikning yetarli emasligi kabi omillar sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, maktabgacha davrda o‘yin faoliyatiga haddan tashqari berilish ham bolaning yangi ta’lim muhitiga

moslashishini qiyinlashtiradi. Shu bois bolani maktabga har tomonlama tayyorlash muhim pedagogik va psixologik vazifalardan biri hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati o'qish faoliyatidir. Maktab ta'limi bolaning psixologik rivojlanishida tub burilish yasaydi. Aynan shu davrda axloqiy me'yorlar, xulq-atvor qoidalari va ijtimoiy munosabatlar shakllana boshlaydi. O'quv faoliyati orqali bolaning bilish jarayonlari yanada faollashadi va rivojlanadi. Idrok kichik maktab yoshida o'zining aniqligi va o'tkirligi bilan ajralib turadi. Bolalar atrofdagi predmet va hodisalarga katta qiziqish bilan qaraydilar hamda ularni kuzatishga moyil bo'ladilar. Shu sababli boshlang'ich ta'limda ko'rgazmali vositalardan foydalanish samarali natija beradi.

Diqqatning asosiy xususiyati esa ixtiyoriy diqqatning hali to'liq shakllanmaganligidir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uzoq vaqt davomida bir faoliyatga diqqatini jamlay olmaydi. Shu bois o'qituvchi dars jarayonida turli metod va usullardan foydalanib, bolalarning qiziqishini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashi zarur.

Xotira jarayoni ham ushbu yosh davrida faol rivojlanadi. Ta'lim ta'sirida so'z-mantiq xotirasi asta-sekin rivojlanib boradi. Shu bilan birga, kichik maktab yoshidagi bolalarda ko'rgazmali-obrazli xotira ustunlik qiladi. Ular ko'rgan, eshitgan va tasavvur qilgan narsalarini tezroq eslab qoladilar. Shu sababli darslarda rasmlar, sxemalar va ko'rgazmali materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xayol ham bolaning o'quv faoliyatida muhim o'rin egallaydi. O'qituvchi tushuntirayotgan mavzularni tasavvur qilish, obrazlar bilan fikrlash va ijodiy yondashish xayol orqali amalga oshadi. Muzeylarga sayohat qilish, ekskursiyalar, kino va teatr tomoshalari, tabiat qo'ynidagi kuzatuvlar bolaning xayolini boyitadi va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Umuman olganda, kichik maktab yoshi bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolaning psixologik xususiyatlarini to'g'ri hisobga olish, unga mos pedagogik yondashuvlarni qo'llash hamda qulay ta'lim muhiti yaratish uning barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi. Bilamizki, ko'pchilik pedagoglar o'quvchilarning aqliy rivojlanishini baholashda qiynaladilar va buning oqibatida ularning ish faoliyatida ta'lim jarayonida hisobga olinishi lozim bo'lgan muhim omil go'yoki chetda

qolib ketadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi ulardagi nazariy yoki amaliy bilim olishga bo'lgan qobiliyat yoki bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. O'quvchining aqliy rivojlanish darajasi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, o'quv materialining muhim va asosiy larni ajrata olishi, olgan bilim yoki hosil qilingan, o'zlashtirilgan ko'nikmani boshqa faoliyatga ko'chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi, mustaqil fikrlashi, xulosa chiqara olishi kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi bolalarda aqliy rivojlanish bosqichlari murakkab va uzluksiz jarayon bo'lib, unda psixologik va pedagogik yondashuvlarning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Oila, maktab va psixolog hamkorligi asosida bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish orqali ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dilnoza Xalkuziyeva ., Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorligining psixologik jihatlari. *SCIENTIFIC PROGRESS*. 2021/6, pp 704-706
2. Ivanov P.I. M.Zufarova "Umumiy psixologiya" T.: 2008 y
3. Jo'raev S. , F.Qodirov "Kichkintoylar nutqini o'stirish" T.: 2005 y.
4. Nishonova Z. Alimova G. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T.: 2006 y
5. Nishonova Z.T. Do'stmuxammedova Sh.A. To'lyaganova Sh.T. Pedagogik psixologiya. Toshkent 2011
6. Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T.: O'qituvchi. 1982 y.
7. Султонова Н.А. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В СЕМЬЕ // *SCIENTIFIC PROGRESS* 2021// 1 (6), 631-635
8. Юлчибоева, Д. Э. (2021). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Scientific progress*, 1(6), 695-698.